BIOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA LABORATORIYA MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Davranov Furqat O‘ktamovich – Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quv fanlari ta'lim oluvchilarning hissiyotlarini uyg‘otadigan, ularning individual xususiyatlarini ochishga, ularda izlanish hislatlarini shakllantirishga yo‘naltirilsa kutilgan natijalarga erishiladi. O‘quvchida insoniy fazilatlar hosil qilish uchun laboratoriya topshiriqlarida o‘quvchining o‘zini harakatga keltiradigan jihatlar topishga e'tibor qaratilmog‘i lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun topshiriqlarni yaratishda o‘quvchini haddan tashqari zo‘riqtirib yubormaslikka rioya qilish, ya'ni belgilangan topshiriqlar o‘quvchilar yoshiga va fiziologik xususiyatlari talablariga javob bera oladigan darajada bo‘lishi, ularda o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji inobatga olinishi lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan metodik qo‘llanma, tavsiya yoki ko‘rsatmani yaratuvchi mualliflar amaliy tajriba va fan ehtiyojlarini inobatga olib laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma qo‘lyozmasini tajribali o‘qituvchilar bilan muhokama qilishi, laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmani yaratishda barcha o‘quvchilar doirasi, ya'ni ularning tahsil olish sharoitlari va ularning qobiliyatlarini hisobga olish, topshiriqlarni tanlashda ularning o‘quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlariga mos kelishi inobatga olinishi, fanning o‘quv dasturini uslubiy qo‘llanmani yaratishda asos qilib olish; taklif etilayotgan laboratoriya topshiriqlari o‘quvchilarni faollikka va tanqidiy fikrlashga undashi, aniq maqsad va vazifalarga yo‘naltirishi, mutaxassislik fanlari bilan bog‘liq bo‘lish kabi bir qator talablarga javob berishi lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar quyidagi mezonlar asosida tuziladi:

1. O‘quvchi - o‘quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda topshiriqni tushunarli, ravon va qiziqarli shaklda tuzish.
2. Topshiriqlarni tushunarli va mantiqiy izchil bajarish jarayonini osonlashtirish uchun illyustrasiya va chizmalardan o‘rinli foydalanish.
3. Laboratoriya topshirig‘i mazmuniga aloqador fikrlarni aniq qo‘llash.
4. Topshiriqqa tegishli bilimlarni qisqa bayon qilish hamda manbaa bilan o‘zaro teran bog‘lash.
5. Topshiriqni tuzishda o‘ziga xos va betakrorlikni, o‘quv predmetiga va o‘quvchining bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish.
6. Laboratoriya topshirig‘ini predmet dasturiga to‘la mos keladigan va uni to‘laligicha qoplaydigan shaklda yozish.
7. Topshiriq mazmunining aniqligi va bexatoligini ta'minlash.

8. Topshiriq hajmini kengayib ketmasligiga e'tibor berish.

9. O‘quvchi - o‘quvchilarni berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashga va amalda qo‘llashga imkon yaratish.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarning kundalik turmush amaliyoti bilan bog‘lash;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;
- fanga oid yetarli miqdordagi ma'lumotlarni o‘zida mujassamlashtirish;
- o‘quvchiga o‘z-o‘zini yoki o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini berishi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan toshpiriqlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilar:

- ta'lim olish jarayonida o‘quvchilarda komil inson fazilatlari, odob-axloq asoslarini, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini jonlantirish;
- laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni ilmiy asoslangan, ishonchli va aniq bo‘lishi, voqea-hodisalar o‘zaro bog‘langan bo‘lishi;
- topshiriqlar tushunarli va qiziqarli bo‘lishi, sodda va ravon tilida tuzilishi;
- topshiriq materiallari kundalik turmush va hayot bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi;
- fan tarixi va milliy merosga asoslangan holda berilishi;
- o‘quvchilar to‘plagan bilimi va hayot tajribasiga mos bo‘lishi;
- beriladigan topshiriq materiallari ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta'riflar bilan mantiqiy izchil bog‘langan bo‘lishi;
- topshiriqlarda yosh avlodni kasbga yo‘naltiradigan g‘oyalar aks etishi;
- o‘quvchilar topshiriq orqali berilayotgan bilim, masala va ko‘nikmalarni egallash zarurligini anglashi, ularni hayot uchun foydasini, ahamiyatini tushunishi;
- topshiriq tuzilishi ko‘rsatmalikka va hodisalar rivojini ichki va tashqi mantiqiylikka asoslanishi;
- topshiriqlarni tanlashda o‘quvchilarda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni jamlantirishga yordam beruvchi kerakli suratlar, sxemalar, chizmalar kabi ko‘rgazmali illyustrasiyalar bo‘lishi, bezaklar o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadigan bo‘lishi va o‘quvchining dars materialni o‘zlashtirishga yordam berishi, ranglarning o‘z joyida va zaruriy me'yorlarda ishlatilishi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni bilim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni izlab topish ko‘nikmalarni hosil qilishni ta'minlashi kerak. Laboratoriya mashg‘ulotlari muayyan yo‘nalishdagi bilimlar berishdan tashqari, o‘quvchilarda olamni, tabiat va jamiyatni idrok etishga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.